

DINIY MANBALARDA IJTIMOYIY-IQTISODIY QARAMLIKKA MOYIL XULQ-ATVORNING PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA O'RGANILGANLIGI

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqola islom manbalarida ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvorning pedagogik, psixologik iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarini, mazkur xulq-atvorning jamiyat va insoniyat uchun xavfli jihatlarini o'rganishga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy qaram xulq-atvor, Avesto, Zardushtiylik, Islom dini, Qur'oni Karim, Hadisi-sharif.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению педагогических, психологических, экономических, политических и социальных проблем социально-экономического зависимого поведения в исламских источниках, а также опасных сторон такого поведения для общества и человечества.*

Ключевые слова: *социально-экономическое зависимое поведение, Авеста, зороастризм, ислам, Священный Коран, хадисы.*

Annotation: *This article is devoted to the study of pedagogical, psychological, economic, political and social problems of socio-economic dependent behavior in Islamic sources, as well as the dangerous aspects of such behavior for society and humanity.*

Key words: *socio-economic dependent behavior, Avesta, Zoroastrianism, Islam, Holy Quran, hadiths.*

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil xulq-atvor muammosi sharq allomalari asarlari hamda islom dini manbalarida ham qoralanadi. O'z imkoniyatlaridan oqilona foydalanmasdan, mehnat qilishdan qochib, dangasalik yo'lini tutgan holda o'zgalarga qaram yashashga moyillik har bir zamonning asosiy ijtimoiy, siyosiy, huquqiy hamda iqtisodiy muammosi sanalgan.

Bugungi kunga kelib, sir emas-ki, shaxs xulq-atvoridagi moyillik mazkur holatning asosiy omillaridan biri ruhiyat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatmoqda. Albatta ushbu holat ijtimoiy sabablar ta'sirida rivojlanib, o'z huquqlarini talab qilish, boqimandalik ko'rinishida shaxsning xulq-atvorida namoyon bo'lmoqda.

“Avesto”da boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy masalalar bilan bir qatorda axloq-odobga doir qoida, o'git, da'vat, cheklash, ta'qiqlash, qoralashlar ko'p uchraydi. Uning hozirgi O'rta Osiyo hududi so'ngra Yaqin va O'rta Sharq bundan 3-3,5 ming yillar oldin yashagan ajdodlarimiz elatlar orasida tarqalib e'tibor qozonib,



bir necha asr hukmron din bo'lib kelganligining asosiy sabablaridan biri shundadir. Zardushtiylik oddiy, kambag'al, mazlum va jabrdiyda urug', qabila, elatlarning manfaatlarini ko'zlaganligi, ularning ezgu niyat va hayoliy orzularini aks ettirilganligi uchun ham tez tarqalgan va teran tomirlar otgan.

Zardushtiylar har bir yaxshi va halol ijtimoiy ehtiyojlar va talablarni qadrlashni diniy ibodat darajasiga ko'targanlar. Bu din bilan bog'liq bo'lgan tasavvurlar, afsonaviy rivoyatlar falsafiy tushunchalar, axloqiy me'yorlar uzoq o'tmishdagi ajdodlarimizning moddiy hayot tarzi va ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Darhaqiqat, zardushtiylik dinida ham, qolaversa, barcha umumjahoniy dinlarda imonli kishi talonchilik va o'g'irlikdan, o'zgalarning mol-mulkiga ko'z olaytirishdan, o'z vijdoniga hiyonat qilish, imonga hilof kirdikorlardan o'zini saqlay bilgan odam komil insondir. Zardushtiylikda odamlarga qarata Axuramazda nomidan «tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring, ya'ni avval ma'naviy dunyongiz, axloqiy qiyofangiz musaffo bo'lsin; shunda moddiy hayotingiz ham mukammal bo'lib boraveradi",- deb uqtirilgan.

Boqimandalik, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik muammosi sharq allomalari tomonidan qoralanib, o'z kuchiga tayanish, o'zining halol mehnati ila boylik va hurmat orttirish, oilasini, ro'zg'orini tebratish, kasb-hunar o'rganish lozimligi ta'kidlangan. Jumladan, Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida Fozil shahar boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko'ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerakligini ta'kidlab, insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi odatlarga dangasalik, bekorchi-lik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlikdir deb, kishilarni undan ogohlantiradi. Farobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat ekanligi, kishilar bunga olamni o'rganish, kasb-hunar va ilmni o'zlashtirish – ma'rifatli bo'lish orqali erishadi deb qaraydi [1, 28-34].

Qur'oni Karimning Anbiyo surasi, 34-35-oyatlarida Alloh taolo aytadi: "(Ey Muhammad), Biz sizdan avval ham birorta odamga abadiy hayot bergan emasmiz. Bas, agar siz o'lsangiz, ular abadiy qolurmi? (Yo'q, ular ham mangu qolmaslar.) Har bir jon o'limni totib ko'rguvchidir. Biz sizlarning (sabr-toqatingizni sinash uchun), (shukr qilishingizni bilish uchun) yaxshilik bilan ham, "aldab", imtihon qilurmiz. (Keyin) faqat Bizgagina qaytursizlar" [2, 34-35].

Qur'oni Karimning Niso surasida quyidagilar zikr qilingan: "Albatta, munofiqlar Allohni aldamoqchi bo'lurlar. Xolbuki, Alloh ularni "aldovchi"dir (142-oyat), "Yer yuzida bechora edik" (97-oyat). "Va Allohga ibodat qilinglar va Unga hech narsani shirk keltirmanglar" (36-oyat). Bu bog'liqlik islom dinida ibodat boshqa-yu, shaxsiy-oilaviy-ijtimoiy hayot boshqa emasligini yana bir bor ko'rsatadi [4, 538-604]. Zero,



“Yerda o‘rmalovchi biror narsa (jonzot) yo‘qki, uning rizqi (ta‘minoti) Allohning zimmasida bo‘lmasa! (U) uning qarorgohini ham, oromgohini ham bilur. Hammasi aniq Kitob (Lavhul-Mahfuz)da (yozilgan)dir” (Hud surasida 6-oyat).

Hadisi sharifda Rosululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: “Badbaxtlikning alomati to‘rtta: Birinchisi – qilgan gunohlarini unutish, holbuki, ular Allohni dargohida unutilmagandir. Ikkinchisi – qilgan savoblarini zikr qilish, holbuki, bu savoblari qabul qilingan – qilinmaganini bilmaydi. Uchinchisi – mol-dunyoda o‘zidan yuqoridagilarga qarash. To‘rtinchisi – din-taqvoda o‘zidan past o‘zidan pastdagilarga, ya‘ni fosiqlarga qarash” [3, 186].

Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillik, insonning o‘ziga, undan keyin boshqalarga ham zarar yetkazadi. Ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyil odam hayotda doim hamistagiga erisholmaydi. Vaholanki, bu hayot doimiy harakatda, o‘zgarish va yangilanishda bo‘lib, bir bosqichda to‘xtab, qotib turmaydigan jarayondir. Ma‘lumki, har bir oilaning o‘ziga yarasha kam-ko‘stlari, ehtiyojlari bo‘ladi. Farzandlar o‘sig‘ulg‘ayib oyoqqa turguniga qadar ularning ta‘minoti bilan shug‘ullanish kerak. Lekin oila boshlig‘i ijtimoiy-iqtisodiy qaramlika moyil, tanbal va ishyoqmas bo‘lsa, ortib boruvchi ehtiyojlar oxir-oqibat uni boshi berk ko‘chaga olib kiradi. Endi u jamiyatdan, davlatdan noliy boshlaydi.

Umar (roziyallohu anhu) bunday degan: “Alloh taolo rizq beradi, deb kasbdan qo‘llaringizni tortmanglar. Alloh tilla va tangani osmondan yog‘dirmaydi”. Allohning xalq qilish yaratish qudrati haqdir, bandadan esa kasb qilish talab etiladi. Demak, rizqni Alloh taolo yaratadi, inson esa kasbi orqali nasib qilganicha oladi. Musulmon kishi halol mehnat qiladi, kasb-hunar bilan shug‘ullanadi va uning ortidan kelgan rizqni Alloh taolodan deb biladi.

Alloh taolo insonni yaratdi, tabiatiga ochlik, tashnalikni qondirish, boshpana qurish, uylanish kabilarni joyladi. Bu ehtiyojlarini qondirish bilan birga O‘ziga ibodat etishni ham talab qildi. Bu amallarni ado etishda namuna va o‘rnak qilib payg‘ambarlarni yubordi. Payg‘ambarlar bashariyat orasidan tanlab olingan va xalqqa ibrat qilingan zotlardir. Ular ham rizqlarini halol yo‘l, kasb bilan shug‘ullanib, mehnat qilib topishgan. Rizq Alloh taolodan ekanini bilib turib ham bekor o‘tirishmagan. Insonlar orasiga qancha payg‘ambar va rasullar yuborilgan bo‘lsa, barchalari halol rizq topish uchun qaysidir kasbning sohibi bo‘ldilar. Rivoyatlardan ma‘lum bo‘lishicha, Odam (alayhissalom) birinchi bo‘lib yerga bug‘doy ekkan, uni sug‘orib parvarish qilgan va o‘rib non pishirgan. Idris (alayhissalom) tikuvchi va xattot, Nuh va Zakariyo (alayhissalom)lar duradgor, Hud, Solih, Shu‘ayb (alayhissalom)lar tijoratchi, Ibrohim (alayhissalom) bazzoz (gazmol sotuvchi), Muso (alayhissalom) cho‘pon, Dovud (alayhissalom) temirchi (sovut yasovchi) bo‘lishgan.



Sulaymon (alayhissalom) esa xurmo daraxti barglaridan savat to‘qigan. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tijoratchi, yoshlik vaqtlarida esa cho‘ponlik qilganlari rivoyatlarda keltirilgan. Payg‘ambarlarning barchasi o‘z kasblari va mehnatlari bilan ro‘zg‘or tebratishgan. Xullas, biror kasb bilan tirikchilik o‘tkazish, ro‘zg‘or tebratish insoniyatdagi asliy fitratdir. Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: «Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): “Alloh yuborgan har bir nabiy, albatta, qo‘y boqqandir”, dedilar. “Siz hammi?” deyishdi sahobalar. “Ha, qiyrotlar uchun Makka ahli qo‘yini boqqan edim,” dedilar”. Payg‘ambarlar eng mahjub va eng to‘g‘ri yo‘lda yurgan bandalardir. Alloh taolo payg‘ambarlariga qo‘y boqishni ravo ko‘rgan ekan. Biz past nazar bilan qaraydigan shu kasb bilan ham halol rizq topib yashash mumkin ekani, undan uyalmaslik kerakligi tushuniladi. Dunyoda mavjud kasblarning ba‘zisini ilk egalari payg‘ambarlar bo‘lishgan.

Miqdam (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Hech kim o‘z qo‘li bilan topgan rizqdan ko‘ra lazzatliroq taom yemagan. Allohning payg‘ambari Dovud (alayhissalom) ham o‘z qo‘llari bilan tirikchilik qilgan”, dedilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Birortangiz yelkasida bir bog‘ o‘tin terib kelishi unga bersa-bermasa, birovdan tilanganidan yaxshidir”, dedilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Kasblarning yaxshisi qo‘l mehnati bilan qilinadigan kasbdir, agar xolis bo‘lsa”, dedilar” (Imom Ahmad rivoyati). Oysha (roziyallohu anho)dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam): “Kishi tanovul qilgan narsaning eng pokizasi o‘z kasbidan yeganidir”, dedilar” (Imom Termiziy rivoyati). Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) sahobalarini, ular misolida butun ummatlarini peshona teri bilan kun kechirishga undar va kasb-hunar orqali tirikchilik qilishga chaqirardilar.

Anas ibn Molik (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (s.a.v.) ularga ansorlardan yetmish nafarini yordamchi kuch qilib berdilar. O‘sha paytda biz ularni “qorilar” deb atar edik. Ular kunduzlari o‘tin terib, kechalari namoz o‘qishar edi...” (Imom Buxoriy rivoyati). Hadisga e‘tibor qaratsak, ansorlardagi ulug‘ sifatni ko‘ramiz: ular kunduzi o‘tin terib, mehnat qilishardi. Ularning hammalari qorilar, ya‘ni Alloh taoloning Kitobini yod olgan edilar. Mehnat ularning ibodatlariga xalaqit bermagani ko‘rinib turibdi. Chunki Qur‘oni karimni yodlash ham oson ish emas.

Tanballik va ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillikni keltirib chiqaradigan bir necha sabab va omillar mavjud bo‘lib, ojizlik ham shular jumlasidan hisoblanadi. Payg‘ambarimiz (alayhissalom) marhamat qilib dedilar: “Kuchli mo‘min kuchsiz mo‘mindan yaxshiroq va Allohga mahjubroqdir, lekin har ikkisida ham yaxshilik bor.



Senga foydali bo'lgan ishlarga haris bo'lg'in va (ishingda) Allohdan yordam so'ragin, lekin hargiz ojizlanmagin!" (Imom Muslim, Imom Ahmad va Ibn Moja rivoyati). Ushbu hadisda Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) mo'minlarni foyda va manfaat keltiradigan ishlarda Allohdan madad so'ragan holda faol, g'ayratli va peshqadam bo'lishga targ'ib qilganlar, ojizlanish va ikkilanish, jur'atsizlikdan qaytarganlar.

Ko'p uyqu, ko'p yeyish ham yalqovlikka, ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka sabab bo'ladi. Chunki ko'p uxlaydigan odamning badanlari bo'shashib, kamharakat bo'lib qoladi, g'aflat va rohatga beriladi. Asosiy vaqti shu yo'sinda o'tgach, o'z-o'zidan ko'plab foydali ishlarni o'tkazib yuboradi. Ibn Qayyum aytadi: "Ko'p uxlash qalbni o'ldiradi, jasadni ishdan chiqaradi, vaqtni zoye qiladi hamda g'aflat bilan ijtimoiy-iqtisodiy qaramlikka moyillikni chaqiradi" ("Madorijus solikin").

Ko'p yeb-ichish ham shunday, badanni semirtirib, og'irlashtirib qo'yadi. To'yib ovqat yeganda jasaddagi kuch-quvvat zaxirasi ovqatni hazm qilishga yo'naltirilgani uchun inson tani bo'shashib, uyquga mayli kuchayadi.

Dinimiz peshona teri bilan topilgan mol-mulk qo'lga kiritilgan narsalarning eng yaxshisi va yoqimlisi ekanini ta'kidlash barobarida ishyoqmaslik, tanballik, bekorchilik, tilanchilik, o'zgalarga yuk bo'lish kabi illatlar girdobiga tushib qolishdan ogohlantirib, bu kabi zararli odatlarni qattiq tanqid ostiga oladi. Agar dinimiz ta'limotlarini diqqat bilan o'rganib, undagi o'git va qaytariqlarning hikmati borasida teranroq tafakkur yuritadigan bo'lsak, u insoniyatning bu dunyosini obod va mazmunli, oxiratini esa saodatli qiladigan ishlarga buyurganiga guvoh bo'lamiz. Dunyoning obodligi esa faqat yaxshi amallar bilan, mehnat va tadbir bilan hosil bo'ladi.

Xulosa o'rnida Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning quyidagi so'zlarini keltiramiz: Agar sizlar dunyoni talab qilsangizlar, mashaqqat chekasizlar. Agar oxiratni talab qilsangizlar, mashaqqat chekmaysizlar va o'shanda Alloh sizlarni yaxshi ko'radi. Kim-ki, tong ottirganda dunyodan ko'ra kattaroq g'am-tashvishi bo'lmasa, uning qalbi to'rtta hislatga muhtalo bo'ladi. Birinchisi, aslo ajralmaydigan tashvish, ikkinchisi, aslo forig' bo'lmaydigan mashg'ullik, uchinchisi, aslo boylikka aylanmaydigan kambag'allik, to'rtinchisi, intihosi bo'lmagan ozru-umidlardir. Agar Alloh nazdida dunyoning pashsha qanotichalik qadri bo'lganida, kofirlarga dunyodan bir qultum suvni ham ravo ko'rmas edi...



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” Yangi asr avlodi, Toshkent 2016. (28, 29, 31, 32, 33. 34-boblar)
2. Qur’oni Karimning Anbiyo surasi, 34-35-oyat
3. Usmon ibn Hasan ibn Ahmad Shokir Xubariy DURRATUN NOSIHIYN (Nasihato‘ylar duri) Movorounnahr-2004, 186-b
4. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf “Tafsiri hilol” 1 juz. 2008, 538-604-b

